

QANG' DAVLATI HARBIY SIYOSIY TIZIMI TARIXIDAN

Mo'minova Gulchehra Ismoilovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi,

Bosimova Dildora Abduvali qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada antik davrda faoliyat ko'rsatgan Qang' davlati, uning chegarasi, harbiy tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Qang' davlati o'zining 6 asrlik hukmronligi davrida harbiy jihatdan o'sha davr davlatlari qatorida yuqori o'rinlarda turganligi ushbu kichik ilmiy maqolada aks ettirib berildi.

Kalit so'zlar: Qang', Xitoy, Usunlar, Talas, Chu, Sirdaryo, Dunxuan, qo'shin tuzilishi, tug', qurol-yarog', Xitoy-Qang' urushlari, Qang' va Kushon munosabatlari.

Qadimgi odamlar ham harbiy san'atni jamiyat uchun alohida, foydali san'at deb bilishgan. Qurol yaratish va uni ishlatish qobiliyati qabilani yanada kuchli qildi. Harbiy ishlar turli yo'llar bilan rivojlandi. Jumladan, ba'zi davlatlar hujum strategiyasini, boshqalari esa mudofaa mexanizmlarini ishlab chiqdilar. Mohiyat taxminan bir xil bo'lib qoldi, xalq oldida qabiladoshlarining hayotini va jamoaning ko'payishiga imkon beradigan hududni himoya qilish muhim vazifa turardi. Tarixchilarning fikricha, bu masala davlatning vujudga kelishi bilan eng katta ahamiyatga ega bo'lgan va shakllanish mexanizmga muhtoj edi.

Har bir davr va davlatlar tarixida harbiy ish, uning strukturasini shakllantirish davlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan. Shu o'rinda biz ushbu maqola orqali antik davrda faoliyat ko'rsatgan Qang' davlati harbiy tizimlari tarixiga nazar solamiz.

Tarixdan ma'lumki, Qang' davlati qadimgi dunyo tarixidagi mashhur davlatlardan biri hisoblanib, mil.avv. III asrdan milodiy III asrgacha mavjud bo'lgan. O'z davrida katta hududlarni o'z ichiga olgan bu davlat Toshkent vohasi, O'rta Sirdaryo yerlari, Talas vodiysi va Chu daryosining quyi oqimi chegarasigacha bo'lgan hududlarni tarkibiga olgan edi. Bunday katta hududni egallagandan so'ng, tabiiyki

davlat va uning hukmdorlari uni himoyalash ishlarini ham amalga oshirish kerak bo'lgan[www.wikipedia.org. internet sayti].

Qang' davlati o'z zamonasining yuksak harbiy salohiyatga ega lashkarboshilari, kuchli va chidamli qurol-yarog'larga ega qo'shini faoliyatda bo'lgan. Qang' davlati qo'shinining qurollanish xususiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, davlat suvoriysi, yuechji suvoriysi singari yubka shaklidagi burmali sovut, ko'krakka taqiladigan qalqon kiyishgan. Baland po'lat yoqalar ularning bo'yin qismini himoya qilgan. Boshni himoya qilish uchun dubulg'alardan foydalanishgan. Ularning qurollari qatoriga qilichlar, nayzalar, jangovar boltalar, kamon va o'qlarni kiritishimiz mumkin. Bundan tashqari har bir bo'linma o'zining ajdar shaklidagi maxsus tug'iga ega bo'lgan [Sagdullayev A. 2018.208-215-betlar]. Demak, Qang' davlati qo'shinining harbiy salohiyatiga va qurollanish xususiyatiga alohida e'tibor qaratgan.

Mavjud manbalar va tarixiy adabiyotlar ma'lumotlarida keltirilishicha, Qang' davlati o'zining chegaralarini xavfdan saqlash uchun qo'shnilari bilan diplomatik yoki savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'ygan bo'lsada, ba'zi hollarda qo'shni hududlari bilan urushlar ham sodir bo'lib turgan. Har bir davr va davlat uchun katta va mahoratli qo'shin o'z vaqtida kerak bo'lgan. Har bir davrda davlatlarning o'z dushmanlari mavjud bo'lgani kabi Usunlar Qang' davlatining ashaddiy dushmani hisoblangan.

Usunlar Xitoy manbalariga ko'ra, mil.avv. III asrda yuechjilar bilan birga Dunxuan bilan Tangritog'ning sharqi, Qorao'ng'u tog' (Kunlun)ning shimolidagi Chilan tog'i orasidagi kichik bir davlat aholisi bo'lgan. Usunlar ko'chmanchi xunlar bilan ittifoq tuzib, Qang' hududlariga bostirib kirgan. Ular mil.avv. II va I asrlarda Xitoy bilan yaqindan aloqa o'rnatgan.[www.wikipedia.org. internet sayti]. Bu davrda Qang' davlati aholisi chegara xavfsizligi ta'minlash uchun xitoyliklarni chegaraga yaqinlashtirmaslikka harakat qilganlar. Shunday bo'lsada, mil.avv.104-102- va 65-yillarda Xitoy Qang' hududiga bostirib kirgan[Shamsutdinov R., 2016. 81-b.].

Manbalarda qayd etilishicha, Qang'uy davlati mil.avv. II asrning oxiri va I asrning boshlarida buyuk davlat bo'lganligi va u Xitoyga nisbatan, mustaqil siyosat

yurgazganligi qayd etiladi. Shuningdek, Qang'uy hatto, Xitoy-Farg'ona mojarolariga aralashadi. Mil.avv. 102-yili Xitoy qo'shinlari Farg'onaga ikkinchi marotaba yurish qiladilar. Bu yurishda qurol-aslaha va oziq-ovqat bilan ta'minlangan 60 minglik qo'shin ishtirok etdi. Oziq-ovqat, qurol-aslaha va boshqalar 100 ming ho'kizga, 30 ming otga va 10 ming eshakka yuklangan[Shamsutdinov R., 2016. 81-84-b.]

Bu davrda Qang' davlati janubida antik davr ulkan va qudratli davlatlaridan biri Kushon davlati joylashgan edi. Qang' va Kushon podsholigi o'rtasida ham urushlar sodir bo'lib turgan. Boshqa davlatlardan hujumga uchragan Qang' davlati vaqti kelganda o'zi ham bosqinchilik siyosatini amalga oshirgan. U ham payti kelganda o'z atrofidagi kuchsizlanib qolgan qabilalarga, vohalarga, viloyatlarga hujum qilib ularni o'zlariga qaram etgan[Muhammadjonov A. 2009. 32-42-b.].

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, antik davrda faoliyat ko'rsatgan Qang' davlati o'z zamonasining taraqqiy etgan davlatlaridan biri edi. Uning qo'shini esa o'z vaqti uchun qudratli bo'lib, rasmiy ma'lumotlarga qaraganda davlat qo'shini 60 ming atrofida bo'lgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Qang' davlati hududidan ko'p miqdorda mis, temir, kumush va boshqa zarur metallar qazib olingan. Bu metallar aralashmasidan tayyorlangan mustahkam qurollar, Qang' qo'shinini yanada kuchli qilgan. O'z zamonasida Qang' harbiy salohiyati bilan hattoki Xitoyni qo'rquvga sola olgan. Qang' davlati 6 asrlik hukmronlikdan so'ng parchalandi va qang'lilar boshqa davlatlar aholisi tarkibiga singib ketdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 2018.
2. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Xoshimov S. Vatan tarixi. 1-kitob. 2016.
3. Muhammadjonov A. Qang'- qadimgi Toshkent va toshkentliklar. Toshkent. 2009.
4. www.wikipedia.org. internet sayti.